

O'SPIRINLARDA TOLERANTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA REFERENT GURUHLARNING O'RNI VA IJTIMOY TASAVVURLAR KONTSEPTSIYASI

Xabibullayeva Muxayyo Kozimjon qizi

Farg'ona davlat universiteti magistranti

MAQOLA MALUMOTI	ANNOTATSIYA:
MAQOLA TARIXI: <i>Received: 04.12.2025</i> <i>Revised: 05.12.2025</i> <i>Accepted: 06.12.2025</i>	<i>Ushbu maqolada o'spirinlarda tolerantlikni shakllantirish jarayonida referent guruhlarining ta'siri, ularning ijtimoiy me'yor va qadriyatlarni qabul qilishdagi o'rnini belgilovchi omillar hamda ijtimoiy tasavvurlar kontseptsiasining nazariy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda o'spirinlik davrining psixologik xususiyatlari, tengdoshlar guruhi va oila kabi muhim referent guruhlardan tolerantlik tamoyillarining shakllanishiga ta'sir qiluvchi mexanizmlar o'rganildi. Shuningdek, jamiyatdagi stereotiplar, kutilmalar va ijtimoiy tasavvurlarning o'spirinlarning xulq-atvori, munosabatlari hamda turli madaniy farqlarni qabul qilishiga qay darajada ta'sir ko'rsatishi ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqot natijalari ta'lim muassasalarida tolerantlikni rivojlantirishga doir pedagogik va sotsiologik yondashuvlarni takomillashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.</i>
KALIT SO'ZLAR: <i>tolerantlik, o'spirinlik, referent guruh, ijtimoiy tasavvurlar, stereotiplar, ijtimoiy identifikatsiya, ijtimoiy munosabatlar.</i>	

Kirish

Globalashuv jarayonlari tezlashayotgan davrda o'spirinlarda tolerantlikni shakllantirish ijtimoiy barqarorlik va madaniyatlararo muloqotning muhim tarkibiy qismidir. O'zbekiston Respublikasida yoshlarda bag'rikenglikni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'spirinlik davrida shaxsning ijtimoiy qarashlari barqarorlasha boshlaydi, referent guruhlar orqali ijtimoiy me'yor va qadriyatlarni qabul qilish jarayoni kuchayadi.

Bu jarayonni tushuntirishda ijtimoiy tasavvurlar (social representations) nazariyasi (S.Moskivichi) va referent guruhlar konsepsiyasi (H.Hayman, R.Merton) alohida ilmiy ahamiyatga ega. Ikkala yondashuv ham o'spirinlar uchun muhitning ta'sirchanligini, madaniy qadriyatlarni o'zlashtirish dinamikasini tushuntirib beradi.

Asosiy qism. Bu yo'nalishdagi tadqiqotlar asos sifatida sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya hamda pedagogika fanlaridagi quyidagi yondashuvlarga tayanadi:

1. Referent guruhlar nazariyasi– o'spirinlarning xulq-atvorini shakllantirishda ular e'tirof etadigan, qabul qiladigan guruhlarining ta'sirini izohlaydi. [1, 25-bet]

2. Ijtimoiy tasavvurlar nazariyasi (S.Moskivichi) – shaxs va guruh ongida shakllanadigan stereotiplar va ular xulq-atvoriga qanday ta'sir qilishini tushuntiradi. [2, 40-bet]

3. Sotsiopsixologik yondashuv – o'spirinlik davrining o'ziga xos psixologik o'sish bosqichlari va tengdoshlar guruhi ahamiyatini sharhlaydi. [2, 112-bet]

O'spirinlik davri (12–18 yosh) – shaxsning ijtimoiy identifikatsiya jarayoni jadallashadigan, o'zini jamiyatdagi o'rnini anglashga intiladigan murakkab bosqichdir. Masalan, A.Adler va E.Erikson ta'kidlaganidek, bu davrda shaxs o'zini turli guruhlar bilan taqqoslaydi va moslashtiradi. [3, 79-bet]

Tolerantlikning shakllanishi quyidagi psixologik omillarga tayanadi:

- empatiya rivojlanishi;
- moslashuvchan tafakkur;
- ijtimoiy o'z-o'zini nazorat qilish;
- madaniy farqlarni qabul qilish motivatsiyasi.

O'spirinlar uchun eng muhim referent guruhlar – oila, tengdoshlar guruhi, o'qituvchilar, onlayn hamjamiyatlardir.

Oila tolerantlikning birlamchi manbai bo'lib, undagi munosabatlar modeli bolalarning boshqa guruhlariga bo'lgan munosabatlarini belgilaydi. [4, 58-bet]

Tengdoshlar guruhi esa o'spirinlikdagi qarorlar, xulq-atvor va qadriyatlarga eng kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ular yangi me'yorlar, taqlid namunalarini taqdim etadi. Tadqiqotlar tengdoshlar guruhi turli etnik guruhlariga nisbatan ijobiy munosabatlarning shakllanishi uchun asos bo'lishini ko'rsatadi. [5, 144-bet]

Ommaviy axborot va ijtimoiy tarmoqlar esa tolerantlik yoki intolerantlikni tez tarqaluvchi ijtimoiy tasavvurlar orqali mustahkamlashi mumkin. Masalan, stereotiplarning takrorlanishi ijtimoiy guruhlar haqida noto'g'ri tasavvurlarni shakllantiradi.

S.Moskivichi ta'kidlaganidek, ijtimoiy tasavvurlar – bu jamiyatda muayyan hodisa yoki guruh haqida shakllangan barqaror qarashlar tizimidir. [6, 44-bet] O'spirinlar bu tasavvurlarni oila orqali, maktab orqali, ommaviy madaniyat va media orqali, referent guruhlar baholari orqali qabul qiladilar.

Bu tasavvurlar tolerantlikka ikki yo'l bilan ta'sir qiladi:

1. Ijobiy ijtimoiy tasavvurlar – bag'rikenglik, hurmat, hamkorlikni kuchaytiradi.

2. Salbiy ijtimoiy tasavvurlar (stereotiplar) – intolerantlik, ksenofobiya, rad etish holatlarini kuchaytiradi.

Maktab va oila darajasida tolerantlikni rivojlantirishning amaliy mexanizmlari quyidahilar hisoblanadi:

rolli o‘yinlar orqali madaniy farqlarni tushuntirish;

referent guruhlarda ijobiy yetakchilarning ko‘paytirilishi;

yoshlar uchun muloqot maydonlarini kengaytirish;

ijtimoiy tasavvurlardagi salbiy stereotiplarni tahrirsiz ko‘rsatish emas, balki tahlil qilish va xolis o‘zgartirish.

Xulosa

Xulosalarimiz shuni ko‘rsatadiki, o‘spirinlarda tolerantlikni shakllantirish murakkab va ko‘p omilli jarayon bo‘lib, unda referent guruhlar hal qiluvchi o‘rin tutadi. Oila, tengdoshlar va pedagoglar o‘spirinlarning ijtimoiy tasavvurlarini shakllantirib, jamiyatdagi madaniy, diniy va etnik xilma-xillikka bo‘lgan munosabatlarini belgilaydi.

Ijtimoiy tasavvurlar kontseptsiyasidan foydalanish tolerantlikni rivojlantirishda samarali yo‘nalish bo‘lib, u stereotiplarning manbalarini aniqlash, salbiy tasavvurlarni neytrallashtirish va ijtimoiy ongini konstruktiv shakllantirish imkonini beradi. Maqolada keltirilgan xulosalar ta’lim tizimi, oilaviy tarbiya va yoshlar siyosatini takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Merton R. Social Theory and Social Structure. – New York: Free Press, 1968.
2. Myers D. Social Psychology. – New York: McGraw-Hill, 2016.
3. Erikson E. Identity, Youth and Crisis. – New York: Norton, 1968.
4. Bronfenbrenner U. Ecology of Human Development. – Harvard University Press, 1979.
5. Brown R. Group Processes: Dynamics Within and Between Groups. – Blackwell Publishing, 2000
6. Moscovici S. Social Representations: Explorations in Social Psychology. – Cambridge: Polity Press, 2000, 44-p.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni ma’naviy va ma’rifiy qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi farmoni.